

# PISA SAVOLLARIGA O'QUVCHILARNI TAYORLASH

**Yaxshieva Z.Z., Siddiqova Sh.A.**

Jizzax davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Maqolaa hozirgi vaqtda zamonaviy maktablar darsni turli bosqichlarida o'qitishning yangi usullarini qo'llashni talab qilmoqdalar, lekin hozirgi maktab allaqachon ma'lum davrda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini nazorat qilish uchun innovatsion usullardan foydalanish mumkin bo'lgan darajaga yetdi. Shunday qilib, biz o'qituvchilarga o'quvchilar mantig'ini, xotirasini va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan, o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini baholaydigan standart test turlaridan tashqari, PISA savollarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganib chiqdik.

**Kalit so'zlar:** PISA, savodxonlik, maktab ta'limi, kompetentsiya, kontentni tahlil qilish, aks ettirish, tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar.

T

a

b

i Darsning bunday tashkil etilishi o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzuni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko'rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi o'quvchilarni o'qitish jarayonida maqsadli o'quv dasturining qiyosiy tahlilini taqdim etishdir, garchi o'quv dasturlari tahlili sinfda yoki yashirin o'quv dasturida amaliyot darajasi to'g'risida ma'lumot bermasa ham, o'qituvchilar amal qilishi va hisobga olishi kerak bo'lgan ko'rsatmalarni aniqlab beradi.

s Har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, bilim olishda ma'suliyat hissini

d

x

o

shakllantirishni, o'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir - biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy - psixologik muhit vujudga kelishi zarurligi ko'zda tutiladi. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda, ularning bir-biri bilan emas, har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi.

PISA savollarini qo'llash imkoniyatlari shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning bosh yo'nalishi: shaxsga yo'naltirilgan dialog hisoblanadi, uning asosida darsda shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan usullarni takommilashtirib borilmoqda.

Dars jarayonida qiziquvchanlik muhitini, emotsional ochiqlikni yaratish, bu, o'z navbatida, o'quvchining eng yaxshi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga imkon beradi, atrof muhitga befarq bo'lmaslikka majbur qiladi, o'qishga qiziqishni shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'qitish usullarining boy xazinasini to'plangan. O'qitishning didaktik usullari va ularni o'rni bilan yangilab borish o'qituvchi oldiga muhim vazifalar qo'yadi. Keng ma'noda dars jarayonida qo'llangan usullar o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'ektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlarni anglatadi. PISA savollarini qo'llash imkoniyatlari biri ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi. PISA savollarini qo'llash natijasida ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O'qitishning og'zaki, reproduktiv va muammoli-izlanish, induktiv va deduktiv usullari bilan bir qatorda, ohirgi paytda dars jarayonini tashkil etishda dialogik o'qitish, interfaol o'qitish, breynstorming, aqlni zo'r berib ishlatish PISA savollarini tushunishda va uni to'g'ri yechishda, amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

Dars doimo o'quvchining faqat bilish imkoniyatini faollashtirish emas, balki har bir o'quvchining shaxsiy namoyonligini ko'rsatishni tizimli o'rganishga ham

qaratilgan bo'lishi kerak. Darsda o'qituvchi butun guruh bilan ishlaydi, lekin bunda u har bir o'quvchini ko'rishi va tushunishi lozim. Zamonaviy dars maqsad va vazifalari bo'yicha juda egiluvchan, o'qitish texnologiyalari va usullari bo'yicha variativ, texnik vositalardan foydalanish bo'yicha mazmunga boy bo'lib qoladi, lekin har doim ham uni shaxsga qaratilgan deb bo'lmaydi va PISA savollarini tug'ri talqin qila olishiga kafolat bera olmaydi.

PISA savollarini qo'llashning asosiy imkoniyati – bu o'qituvchi tomonidan faqat ijobiy ijodkorlik muhitini yaratish emas, balki o'quvchining sub'ekt tajribasiga, uning shaxsiy hayot faoliyati sifatida muntazam murojaat qilishidir. Darsda sub'ekt tajribasi bilan ishlash, o'quv ishi jarayonining tahliliga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga imkon beruvchi munosabatning turli shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi.

PISA savollarini qo'llashda har qanday darsning asosiy g'oyasi o'rganib chiqiladigan mavzu bo'yicha o'quvchining sub'ekt tajribasi mazmunini ochib berish, uni bilim bilan moslashtirish, shu bilan materiallarni o'zlashtirishga erishishdan iborat. O'qituvchi darsda o'quvchiga uning sub'ekt tajribasidagi chegaralanganlikni aylanib o'tishga yordam beradi.

O'qituvchining professional holati shundan iborat bo'lishi kerakki, bunda o'rganiladigan mavzu mazmuni bo'yicha o'quvchining har qanday fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak. Bu teng huquqli dialog (polilog) bo'lishi, bunda har bir o'quvchi muhokama qilinadigan mavzu bo'yicha qo'rqmasdan o'z fikrini bildirishi mumkin. O'qituvchining vazifasi ilmiy mazmunli, darsga mos taxminlarni aniqlash va umumlashtirish, ajratish, qo'llab-quvvatlashdan iborat. Eng muhimi, o'quv vazifalarini yechish uchun zarur sharoitni hamkorlikda izlash va tahlil qilish hisoblanadi, bu o'quvchi o'quv materialini o'zlashtirishi bo'yicha, bunda qanday vositalardan foydalanish kerakligi ishlarini qanday tashkil etganligini baholash nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchining tengdoshlari va o'qituvchi bilan o'zaro munosabati ham muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak PISA savollarini qo'llashda o'quvchilarda insonparvarlik, erkinlik, tashabbuskorlik, hamkorlik, muammoli, loyihali, evristik, mustaqillik kabi kompetentlikni shakllantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yakhshieva Z.Z.Siddikova Sh.A. Formation of teachers' competence in accordance with international programs.//Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal Volume 2020 Issue 2 Article 1 12-30-2 020 Follow this and additional works at:<https://uzjournals.edu.uz/tziuj>.
2. Siddikova Sh.A. Formation Of Future Specialists In Teaching Natural Sciences//Publication Year: 2020 Solid State Technology Volume: Home /Archives/Vol 63№6/2020/Arteles Indexedby Scopus
3. Yakhshieva Z.Z.Siddikova Sh.A Functional Literacy In Living Challenges (Pisa Study)//International Scientific and Current Research conferences“ Pedagogy and Modern Education: tradition, experience and innovation" conference date 05-02-2021 DOI <https://doi.org/10.37547/isrc-intconf02> Indianapolis, Indiana USA6.
4. Siddikova Sh.A. Approche créative basée sur les tests PISA.//8International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 02, 2021
5. Andreeva, ND Methodology of teaching biology in a modern school: manual and workshop for undergraduate and graduate programs / ND Andreeva, I. Yu. Azizova, NV Malinovskaya; ed. N.D. Andreeva. - 2nd ed., Rev. and add. - M.: Yurayt, 2017 - 294 p. - (Series: Educational process). - ISBN 978-5-9916-9923-5. - Access mode: [www.biblioonline.ru/book/6B03718B-084A-4AD0-8783-4CD35B88D187](http://www.biblioonline.ru/book/6B03718B-084A-4AD0-8783-4CD35B88D187).
6. Internet journal "Laboratory of knowledge" published by BINOM. Number 4, April 2012. <http://gazeta.lbz.ru/>
7. Siddikova Sh.A Maxmurova D.D Xolbutaev Sh.Mirzaeva M. Preservation Of Medicinal Plants From The Negative Impact Of Environmental Problems.// Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 10 Issue 11, Nvember- 2020 ISSN: 2249-7382 | Impact Factor: 7.077| (An open access scholarly, peer-reviewed, interdisciplinary, monthly, and fully refereed journal.)

8. Siddikova Sh.A Pisa Program for Reading and Science Literacy Improvement in Biology Studies.// Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 3230 – 3238 / 16 February 2021; Accepted 08 March 2021.
9. Яхшиева З.Ш. Подбор интерактивного подхода в обучении иностранным языкам.Филология и лингвистика№ 1. 2015. С.12-15. Россия
10. Яхшиева З.Ш., Яхшиева М.Ш.Самовоспитание — вечное, что было, есть и будет всегда.// II Международный конкурс. Липецк. 21 октябрь 2015. С.167-171
11. Яхшиева З.Ш., Яхшиева М.Ш.Роль педагога в воспитании всесторонне развитого и здорового поколения // Молодой ученый.. Россия №1 часть7. 2016. С.773-776
12. Яхшиева З.Ш. Holboeva G., Yakhshieva M. Sh. Development of scientific outlook of the students // International Scientific Review 2016. №4 (14) Boston. USA. 7-8 April 2016. 178-179 P.
13. Яхшиева З.Ш. Разработка стратегии проведения урока на основе SWOT-анализа // Молодой учёный. №17 (151). Апрель 2017. С. 311-313